

**SUIDSIDIAL HOLATLAR YUZAGA KELISHIDAGI ASOSIY
PSIXOLOGIK MUAMMOLAR**

Esonova Zulayho Ma'murovna

*Farg'ona viloyati Furqat tumani 30- umumiy o'rta ta'lim maktabining
amaliyotchi psixologi*

***Annotatsiya.** Hammaga ma'lumki, psixologiya — inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to'g'risidagi fan. Ijtimoiy munosabatlar tizimida o'smirlar hayotida suitsidal xulq –atvorning namoyon etilishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy –psixologik omillarni aniqlash va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.*

***Kalit so'zlar:** psixologiyaning tarmoqlari, suitsid, jamiyat, shaxs, ijtimoiy muhit, oilaviy muammolar, o'z joniga qasd qilish, yashirin suitsid.*

KIRISH

Psixologiyaning tadqiqot predmetiga sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar, kategoriyalar kiradi. Psixologiyaning asosiy vazifalari psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir. Mazkur vazifalar yechimini topishda psixologiya bir tomondan, biologiya fani sohalari bilan, jumladan, fiziologiya bilan, boshqa tomondan esa, sotsiologiya, pedagogika, madaniyat tarixi, mantiq hamda ijtimoiy fanlar bilan jips aloqaga kirishadi. Psixologiya eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo'lmish ong va o'zini o'zi anglashni tadqiq etadi.

Qadimgi yunon tilidan tarjima qilingan "psixologiya" so'zi tom ma'noda "ruh haqidagi fan" (psyche - "jon", logos - "tushuncha", "ta'limot") degan ma'noni anglatadi. Ilmiy foydalanishda "psixologiya" atamasi birinchi marta 16-asrda paydo bo'lgan. Dastlab, u aqliy yoki psixik deb ataladigan hodisalarni, ya'ni har bir kishi o'z-o'zini kuzatish natijasida o'z ongida osongina kashf etadigan hodisalarni

o'rganish bilan shug'ullanadigan maxsus fanga tegishli edi. Keyinchalik, 17-19-asrlarda. psixologiya tomonidan o'rganiladigan soha kengayib bormoqda va nafaqat ongli, balki ongsiz hodisalarni ham o'z ichiga oladi. Demak, psixologiya psixika va psixik hodisalar haqidagi fanidir. Psixologiya - bu ruh haqidagi fan.

Psixologiya - bu alohida shaxsning psixikasi va ruhiy hodisalari, ham guruhlar va jamoalarda kuzatiladigan psixik hodisalar. O'z navbatida, psixologiyaning vazifasi psixik hodisalarni o'rganishdir. Psixologiyaning vazifasini xarakterlab, S.L.Rubinshteyn shunday deb yozadi: "Psixologik bilish – bu psixikani uning muhim, ob'ektiv aloqalarini ochib berish orqali vositachi bilishdir".

- Psixologiyaning vazifalari:
- Psixik voqelikni sifatli o'rganish;
- Psixik hodisalarning shakllanishi va rivojlanishini tahlil qilish;
- Ruhiy hodisalarning fiziologik mexanizmlarini o'rganish;
- Psixologik bilimlarni inson hayoti amaliyotiga tizimli ravishda joriy etishda yordam berish.

Suitsid-o'z joniga qasd qilish degan ma'noni anglatib, o'z joniga qasd qiluvchilar suitsidentlar nomi bilan ataladi. Bu holatni amalga oshiruvchilarning ko'pchiligi sog'lom ong egalaridir, ularda turli depressiya, oilaviy va moliyaviy muammolar, ruhiy va jismoniy holatlar natijasida shu jarayoni amalga oshiradilar. O'zbekistonda suitsid muammosining ijtimoiy – psixologik jihatlarini ilk bor ilmiy tadqiq etishni boshlagan mutaxassislar guruhi a'zolari psixologiya fanlari doktorlari, professorlar

M.G.Davletshen, G'.B.Shoumarov, psixologiya fanlari nomzodlari, dotsentlar

S.A.Axundjanova, N.A.Sog'inov, Z.R.Qodirova, E.Sh.Usmanov, B.M.Umarov, F.S.Ismailova, Z.F.Kamaliddinova, tibbiyot fanlari nomzodi N.M.Xo'jayeva va psixolog N.Z.Ismoilovalardan iborat edi. Mazkur guruh a'zolari faoliyati mahsuli o'laroq, suitsid muammosini ilmiy tadqiq etish asnosida o'rganilayotgan muammoning nazari asoslari ishlab chiqildi, turli ilmiy

konsepsiyalar yaratildi. Suitsidning yuzaga kelishiga asos bo'lishi mumkin bo'lgan omillar, suitsid sabablari, ularning turlari, vositalari, ko'rinishlari aniqlandi, suitsidni tadqiq etish metodikalari yaratildi, ularning oldini olish va bartaraf etishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu borada alohida e'tirofga molik tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, mazkur muammo hali hanuz hal etilgani yo'q. Hamon dunyo miqyosida, o'z joniga qasd qilib, hayotdan ko'z yumganlar miqdori avtomobil halokati tufayli hayotdan ko'z yumganlardan ko'pligicha qolmoqda Albatta, bu ko'rsatkich respublikamizda g'arb, yevropa davlatlaridagiga qaraganda sezilarli darajada kam bo'lsa-da, lekin aholimizning etnik, hududiy xususiyatlariga bog'liq holda bu hodisaning salbiy asoratlari og'irroq kechadi.

Dunyo bo'ylab har yili 1 mln. odam suitsid orqali hayotdan ko'z yumadi (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari, 2016 yil). Bu ko'rsatkich 100 000 aholiga o'rtacha 16 kishini tashkil qiladi. Dunyo miqyosida suitsid bo'yicha eng oldinda borayotgan davlatlar – bular Rossiya (26,5), Litva (25,7) va Qozog'iston (22,8). Taqqoslash uchun Janubiy Koreyada 20,2, Belgiyada 15,7, Yaponiyada 14,3, AQSHda 13,7, Fransiyada 12,1, Shveysariyada 11,3, Germaniyada 9,1, Isroilda 5,2 suitsid kuzatiladi. Ushbu ko'rsatkichlar har yili o'zgarib turadi. Masalan, 2012 yili Janubiy Koreyada suitsid darajasi 28,9 ni tashkil qilgan. E'tibor qilinadigan bo'lsa, hayot darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda suitsid darajasi ham yuqori bo'lib qolmoqda. Musulmon davlatlarida suitsid darajasi ancha past hisoblanadi (Qozog'iston bundan istisno). Masalan, 100 000 aholiga Qirg'izistonda 9,1, O'zbekistonda 7,4, Turkiyada

7,2, Turkmanistonda 7,2, Bahraynda 5,7, Saudiya Arabistonida 3,4, Tojikistonda 3,3, Birlashgan Arab Amirliklarida 2,7, Ozarbayjonda 2,6, Quvaytda 2,2 suitsid ro'y beradi (JSST, 2016 yil). Yillab urush girdobida qolgan davlatlarda suitsid kam uchrashi e'tiborni tortadi. Masalan, Afg'onistonda bu ko'rsatkich 6,4, Iroqda 4,1, Livan 3,2, Suriyada 2,4 suitsid ro'y beradi. Karib dengizi davlatlari va Bagam orollarida suitsid juda kam uchraydi.

Suitsidni shartli ravishda 2 guruhga ajratish mumkin: birinchisi – tantanovor suitsid, ya'ni o'z joniga qasd qilishni oshkor qilib yuradiganlar; ikkinchisi –

yashirin suitsid, ya'ni hech kimga bildirmasdan o'z joniga qasd qiluvchilar. Tantanavor suitsid ko'pincha o'smirlarda kuzatiladi, agar ular ota-onasi bilan urishib qolsa, "Mana ko'rasizlar, o'zimni o'ldiraman-u, mendan qutulasizlar" deb yurishadi. Odatda, o'smirning bu gapiga e'tibor qilishmaydi yoki kulib qo'yishadi. O'z joniga qasd qiluvchi o'smir go'yoki shu yo'l bilan ota-onasidan alamini olmoqchi bo'ladi

Agar u biror-bir odamning janozasiga borib qolsa, "Men o'lsam ham ota-onam va qarindosh-tuqqanlar shunaqa ayuhannos solib yig'lashadi, meni qiynaganlarini eslab bolamga e'tibor qilsam bo'larkan, nega aytganlarini qilmadim" deb kuyib-yonishadi degan fikrga qiladi va tezroq o'z joniga qasd qilishga intiladi. Shuning uchun ham ba'zan o'z joniga qasd qilishlar ketma-ket ro'y beradi. O'z joniga qasd qilishga jazm qilgan odam odamovi bo'lib qoladi, kam gapiradi, yolg'izlikka intiladi, xulq-atvori ham o'zgarib boraveradi. U to'y va tug'ilgan kun kabi o'yin-kulgili joylarga bormay qo'yadi, biroq janoza va marakalarga, albatta, borishga harakat qiladi. Chunki u yerda odam o'lgandan keyin bo'ladigan voqealar aks etadi-da. U o'zini shu o'lgan odam o'rnida tasavvur qilib ko'radi. Hali aytganimdek, bu holat o'z joniga qasd qilishni yanada tezlashtiradi.

Yashirin suitsid, ko'pincha, yoshi kattalar uchun xos. Ba'zan bola-chaqali, nevara-evarali bo'lib ketgan yoshi ulug'lar ham o'z joniga qasd qilishadi. Bu, ayniqsa, qariganida doimo uning yonida bo'lguvchi umr yo'ldoshi vafot etgandan keyin ro'y beradi. Farzandlari ishga, nevaralari maktabga ketgandan keyin eng yaqin sirdoshidan ayrilgan keksa doimo uyda yolg'iz yashay olmaydi. Uning miyasiga "Farzandlarim menga e'tibor qilmay qo'yishdi, hammasi o'zi bilan o'zi ovora, menga bu hayotda yashashning ne keragi bor, men ham o'lsam bo'lmasmidi" degan fikrlar kelaveradi. Uyda yolg'iz qolib, yig'lab ham oladi. Albatta, yolg'iz qolgan keksalarga e'tibor zarur, ular bilan suhbatlashib turish kerak.

Umuman olganda, statistik jihatdan suitsidal axloq va aniq psixik buzilish ortasidagi yetarlicha aloqa aniqlanmagan. Sabablar. - dinsizlik; - ma'rifatsizlik;

- to'qchilik;- yo'qchilik;- shahvoniy, nafsoniy sevgi;- o'z joniga qasd qilishni muammoning yechimi sifatida ko'rish;
- o'limning haqiqati, qabr azobi, oxirat, qayta tirilish, qiyomat va do'zaxdagi azob -uqubatlardan bexabarlik; - ruhiy xastalik.

Oiladagi muhit sababli farzandlarni o'z joniga qasd qilishi real va daxshat sababi bola dastlab tarbiyani oiladan oladi. Avvalo oilalardagi muhitni ijobiylikka o'zgartirmog'imiz kerak shu bilan bir qatorda ota-onaning bir biriga munosabati, yetishmovchilik, kelishmovchilik bolani oldida hal qilinmagani ma'qul. Kimdir o'z joniga qasd qilishini sezgan inson uni tinglashi kerak ularga ularni tinglaydigan inson kerak. Suitsiddan keyingi holat qanday yakun topishi barchaga noma'lum, shunday ekan uning oldini olgan ma'qul.

Xulosa: Insonlarni hayotini saqlab qolish uchun ularni tinglamog'imiz kerak. Agar o'z joniga qasd qilmoqchi bo'lgan yoki shunga moyilligi bo'lgan insonni tanisangiz unga hayotini saqlab qolishida yordam berishingiz mumkin. Buning uchun uni tinglang. Suitsidni amalga oshirmoqchi bo'lganlarda asosan "Men xechkimga kerak emasman", "meni xechkim eshitmaydi" degan tushuncha bo'ladi.

Insonlarni tinglab ular mavjud bo'lgan holatni bartaraf etamiz. Maktab psixologlari, sinf rahbarlari bunday shaxsga be'tibor bo'lmasligi kerak. O'ylaymizki, bu muammo kunlar kelib o'z yechimini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oila psixologiyasi, "Sharq" Nashriyot-Matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent 2008y
2. D. Abduvahobova, Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi
3. M.Otajonov, D.Soliyeva Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi, Qo'qon 2020y.
4. www.ziyonet.com.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/o'zini_o'ldirish.
6. <https://www.newjournal.org/>